

**FORMATION AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE GREEN ECONOMY****Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li**

PhD in Economics, Acting Associate Professor

E-mail: turgunov.jasurbek1123@gmail.com

**Khujanazarova Fotimaxon Ma'ruf qizi**

E-mail: fotimaxonmarufvna@gmail.com

**Khujanazarova Zuhraxon Ma'ruf qizi**

E-mail: zuhraxonmarufvna@gmail.com

4th - year student, Faculty of Tourism and Economics,  
Kokand Universiteti**ABSTRACT**

This article systematically analyzes the formation of the green economy, its theoretical foundations and modern development trends. The study substantiates the relevance of the green economy concept in the context of global environmental problems, in particular, climate change, limited natural resources and environmental degradation. It also highlights important areas of increasing energy efficiency, using renewable energy sources, reducing emissions and introducing "green" technologies in the process of greening the economy. The article analyzes the mechanisms of transition to a green economy, specific aspects of state policy and institutional approaches based on the experience of developed and developing countries. At the same time, the role of innovation, investment and environmental management in ensuring sustainable development is revealed. The results of the study demonstrate the importance of the green economy not only in maintaining ecological balance, but also in ensuring economic growth and social well-being.

**Keywords:** green economy, sustainable development, environmental sustainability, climate change, renewable energy sources, energy efficiency, ecological innovations, rational use of resources, environmental protection, green technologies, economic greening, sustainable development trends.

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotning shakllanishi, uning nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda global ekologik muammolar, xususan, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda atrof-muhit degradatsiyasi sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining dolzarbligi asoslab beriladi. Shuningdek, iqtisodiyotni ekologizatsiyalash jarayonida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va «yashil» texnologiyalarni joriy etishning muhim yo'nalishlari yoritiladi. Maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi asosida yashil iqtisodiyotga o'tish mexanizmlari, davlat siyosati va institutsional yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, barqaror rivojlanishni ta'minlashda innovatsiyalar, investitsiyalar va ekologik boshqaruvning roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotning nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlari :** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, iqlim o'zgarishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, ekologik innovatsiyalar, resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, yashil texnologiyalar, iqtisodiy ekologizatsiya, barqaror taraqqiyot tendensiyalari.

**KIRISH QISMI**

Yashil iqtisodiyot zamonaviy global miqyosda keng qamrovli va tub o'zgarishlarni talab qiluvchi konsepsiya sifatida qaraladi. Ushbu model davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini sezilarli darajada qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunday o'zgarishlarni amalga oshirish murakkab bo'lsa-da, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli yashil investitsiyalarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat xarajatlarini yo'naltirish, siyosiy islohotlarni amalga oshirish, shuningdek soliqqa tortish va tartibga solish tizimlarida o'zgarishlar kiritish zarur hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilayotgan yondashuv atrof-muhit va tabiiy kapitalni iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hamda ijtimoiy farovonlik manbai sifatida baholaydi. Bu ayniqsa tabiiy resurslarga bevosita bog'liq bo'lgan aholining, xususan, kam ta'minlangan qatlamlarning hayotiy faoliyati uchun dolzarbdir. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanish tushunchasini almashtirmaydi, balki uni iqtisodiyot, investitsiyalar, kapital, infratuzilma, bandlik va malaka tizimlari kabi sohalarda yangi ustuvor yo'nalishlar bilan boyitadi hamda ijobiy ijtimoiy va ekologik natijalarga erishishga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish jarayonida yashil iqtisodiyotning o'rni barqaror iste'mol va ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Bu yondashuv mahsulotlar va jarayonlarning butun hayotiy sikli davomida resurslardan foydalanishni optimallashtirish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish hamda zararli emissiyalarni qisqartirishni nazarda tutadi. Resurs samaradorligi esa iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratishda resurslardan oqilona foydalanishni anglatib, mahsulot yoki xizmat birligi uchun sarflanadigan resurslar miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Natijada, chiqindilar hajmini qisqartirish va ekologik yuklamani kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy asoslarini shakllantirib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Agar mavjud iqtisodiy siyosatlar tubdan o'zgartirilmasa, prognozlariga ko'ra 2030-yilga borib jahon miqyosida energiya talabining sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Jumladan, global energiya iste'moli taxminan 80 foizga ko'payishi mumkin. Mamlakatlar kesimida qaralganda, Janubiy Afrikada 15% Yevropa davlatlarida 28 % Yaponiyada 2,5 % Meksikada esa 112 % energiya talabi ortishi bashorat qilinmoqda. Shu bilan birga, issiqxona gazlari emissiyasi

60% oshib, atrof-muhit ifloslanishining kuchayishiga olib keladi. Shahar hududlarida ekologik muammolar yanada keskinlashib, shu yilga kelib ifloslanish eng dolzarb global muammolardan biriga aylanishi mumkin. Ayniqsa, ichimlik suvi sifatining yomonlashuvi va sanitariya sharoitlarining izdan chiqishi muhim muammolar sifatida ko'riladi. Havoning kuchli ifloslanishi natijasida har yili 3,6 millionga yaqin bevaqt o'lim holatlari kuzatilishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu ko'rsatkichda Xitoy va Hindistonning ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lishi taxmin qilinadi. Bundan tashqari, global miqyosda yer maydonlarining taxminan

12% qisqarishi kutilmoqda, bu esa ayniqsa Osiyo, Yevropa va Janubiy Afrika mintaqalarida sezilarli bo'lishi mumkin. Prognozlarga ko'ra, tabiiy o'rmonlar maydoni kelajakda 20 % qisqarishi ehtimoli mavjud. Bunday global ekologik tahdidlarning oldini olishda asosiy e'tibor iqtisodiyotni ekologizatsiyalash jarayoniga qaratilishi lozim. Bu jarayonda «yashil iqtisodiyot»ga o'tish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish hamda yashil investitsiyalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faoliyat ekologik samaradorlikni oshirish bilan birga iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Eko-innovatsiyalar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiluvchi yangiliklar majmuasini anglatadi. Ular yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, tabiiy resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish hamda zararli chiqindilar va emissiyalarni minimallashtiruvchi ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, eko-innovatsiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash vositasi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va mamlakatning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida ham qaraladi. Davlat darajasida yashil iqtisodiyot ulushini kengaytirish maqsadida turli iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish mumkin. Jumladan, tezlashtirilgan amortizatsiya tizimi, mulk va daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar joriy etilishi orqali korxonalarni ekologik faoliyatga

rag'batlantirish mumkin. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat moliya institutlari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hamda yashil texnologiyalarga investitsiyalar yo'naltirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar berish o'rniga, ekologik mezonlarga asoslangan moliyaviy tizimlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada xususiy banklar va sug'urta kompaniyalarining rolini kuchaytirish alohida ahamiyatga ega. Banklar kredit ajratish jarayonida korxonalaridan ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarni talab qilishi, sug'urta tashkilotlari esa ekologik xavflarni baholash va ularni kamaytirish bo'yicha maxsus deklaratsiyalarni ishlab chiqishi mumkin. Mazkur mexanizmlar ekologik mas'uliyatni oshirishga va barqaror moliyaviy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot odatda past uglerodli, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan hamda ijtimoiy jihatdan inklyuziv rivojlanish modeli sifatida tavsiflanadi. Shu model doirasida bandlik va daromadlarning oshishi, asosan davlat va xususiy sektor tomonidan iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va asosiy aktivlarga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali ta'minlanadi. Bunday investitsiyalar natijasida issiqxona gazlari emissiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kamayadi, energiya va resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining saqlanishi ta'minlanadi. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning samaradorligini baholash va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda «yashil o'sish» indeksining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur indeks doirasida quyidagi ustuvor yo'nalishlar alohida e'tiborni talab qiladi:

- Energiya sektori – qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish darajasini oshirish va energiya samaradorligini ta'minlash;
- Transport tizimi – ekologik toza transport vositalari, xususan elektr transportdan foydalanishni kengaytirish;
- Suv resurslari boshqaruvi – irrigatsiya tizimlaridan oqilona va samarali foydalanish orqali suv tejash texnologiyalarini joriy etish;
- Qishloq xo'jaligi – mineral o'g'itlardan foydalanishni optimallashtirish va ekologik toza agrotexnologiyalarni rivojlantirish;
- O'rmon xo'jaligi – o'rmon maydonlarini kengaytirish va mavjud daraxtlar sonining qisqarishini oldini olish;
- Chiqindilarni boshqarish – chiqindilarni qayta ishlash, sanoatini rivojlantirish va resurslarni ikkilamchi foydalanishga yo'naltirish.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda global miqyosda yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi, bunga asos sifatida kompleks va tizimli yondashuv tanlandi. Mazkur yondashuv ekologik va iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini ilmiy asoslash imkonini berdi. Natijada, yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot zamonaviy global taraqqiyot paradigmasi sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu konsepsiyaning mohiyatini chuqur anglash va uni amaliyotga samarali joriy etish uchun uning asosiy tamoyillarini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan beshta asosiy tamoyilga tayanadi. Shu bilan birga, ular tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali

ekologik muammolarni kamaytirishga hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga yo'naltirilgan.



### 1-rasm. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari

#### 1. Farovonlik tamoyili

Yashil iqtisodiyot jamiyatning barcha a'zolariga farovon hayot yaratish va undan foydalanish imkonini ta'minlashga yo'naltirilgan tizim hisoblanadi. U inson manfaatlarini markazga qo'yib, chinakam va keng qamrovli farovonlikka erishishni maqsad qiladi. Bunday iqtisodiyot nafaqat moliyaviy boylikni, balki inson kapitali, ijtimoiy aloqalar, jismoniy resurslar hamda tabiiy boyliklarni ham o'z ichiga olgan keng tushunchadagi boylikni rivojlantirishga intiladi. Shuningdek, u barqaror tabiiy tizimlar, zamonaviy infratuzilma, bilim va ta'limga keng kirish imkoniyatlarini yaratishga ustuvor ahamiyat beradi. Bu esa yashil va munosib turmush tarzini qo'llab-quvvatlab, yangi ish o'rinlari hamda biznes imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Yashil iqtisodiyot jamoaviy hamkorlik tamoyiliga asoslanadi, shu bilan birga har bir shaxsning mustaqil tanlovi va mas'uliyatini ham muhim deb hisoblaydi.

#### 2. Adolat tamoyili

Ushbu tamoyil jamiyatda tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan.

U qarorlar qabul qilishda barcha qatlamlarning manfaatlarini hisobga olishni, resurslarni adolatli taqsimlashni va kamsitishning oldini olishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, avlodlar o'rtasida ham tenglikni saqlash muhim hisoblanadi.

#### 3. Barqarorlik tamoyili

Barqarorlik tamoyili yashil iqtisodiyotning muhim konseptual asoslaridan biri bo'lib, u tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik cheklovlar va ularning qayta tiklanish salohiyatini inobatga olgan holda oqilona yondashuvni nazarda tutadi. Mazkur tamoyil iqtisodiy faoliyatni atrof-muhit bilan uyg'unlashtirish orqali tabiiy resurslarning uzoq muddatli saqlanishini ta'minlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, barqarorlik hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish jarayonida kelajak avlodlarning ekologik va iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazmaslik prinsipiga asoslanadi. Ushbu tamoyil doirasida resurslardan foydalanish ularning tiklanish sur'ati bilan muvofiqashtirilishi zarur bo'lib, ayniqsa, qayta tiklanmaydigan resurslarni iste'mol qilishni minimallashtirish va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, tabiiy muhitga antropogen bosim kamaytiriladi hamda ekologik xavfsizlik darajasi oshiriladi. Shuningdek, barqarorlik tamoyili ekotizimlarning funksional

yaxlitligini saqlash, ularning tabiiy muvozanatini buzilishdan himoya qilish va biologik xilmaxillikni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Bu esa biosfera barqarorligini ta'minlash bilan birga, inson faoliyatining ekologik oqibatlarini cheklashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanish va ekologik muhofaza o'rtasida muvozanatni ta'minlash orqali barqaror taraqqiyotning strategik asosini tashkil etadi.

#### 4. Samaradorlik tamoyili

Bu tamoyil resurslardan maksimal darajada samarali foydalanishni ko'zda tutadi. Ya'ni kam resurs sarflab, ko'proq natijaga erishish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan. Bu iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik bosimni kamaytiradi.

#### 5. Innovatsiya va texnologiyalar tamoyili

Yashil iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynaydi.

Eko-innovatsiyalar, energiya tejoychi texnologiyalar va raqamli yechimlar iqtisodiyotni yanada ekologik toza va samarali qilishga yordam beradi. Bu tamoyil yangi bilimlar va ilmiy yutuqlar asosida barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, biomassa),

«aqli» texnologiyalar, raqamli monitoring tizimlari hamda chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari yashil iqtisodiyot samaradorligini oshiradi.



## 2-rasm. Yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanish strategiyasining bosqichma-bosqich modeli

Ushbu grafik model yashil iqtisodiyotni barpo etishning uchta o'zaro bog'liq bosqichini aks ettiradi:

1. Institutsional muloqot va mafkuraviy targ'ibot: Dastlabki bosqichda mintaqaviy va milliy darajadagi forumlar orqali ekologik barqaror o'sish tamoyillarini ommalashtirish nazarda tutilgan. Bu jarayon iqtisodiy taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni tushunish uchun kontseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Texnologik va moliyaviy integratsiya: Ikkinchi bo'g'in yashil iqtisodiyotning amaliy mexanizmlariga qaratilgan. Bunda «yashil» moliya tizimini shakllantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va toza ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb qilish orqali ekologik loyihalarning iqtisodiy jozibadorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

3. Makroiqtisodiy tartibga solish va davlat qo'llab-quvvatlovi: Yakuniy bosqichda yashil transformatsiya jarayonlarini tizimli ravishda mustahkamlash talab etiladi. Makroiqtisodiy siyosat instrumentlari (soliq imtiyozlari, subsidiyalar va huquqiy me'yorlar) orqali yashil sektorning barqaror faoliyati uchun qulay muhit yaratiladi.

### XULOSA

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, yashil iqtisodiyotning asosiy rivojlanish yo'nalishlari sifatida qayta tiklanuvchi energiya ulushining ortishi, energiya va resurs samaradorligining oshishi, chiqindilarni kamaytirish hamda aylanma iqtisodiyot tamoyillarining keng joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, eko-innovatsiyalar va «aqlli» boshqaruv tizimlarining rivojlanishi yashil iqtisodiyot samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni faqat texnologik yangilanishlar bilan emas, balki samarali davlat siyosati, institutsional islohotlar va moliyaviy mexanizmlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan, yashil investitsiyalarni kengaytirish, ekologik soliqlar va imtiyozlar tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish muhim vazifalardan biridir. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari uning global miqyosda barqaror va inklyuziv iqtisodiy tizim sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalish kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhit yaratish bilan birga, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eason, B., Noble, I. N., & Sneddon, I. N. (1955). On certain integrals of Lipschitz-Hankel type involving products of Bessel functions. *Philosophical Transactions of the Royal Society of London. Series A*, 247, 529–551.
2. Maxwell, J. C. (1892). *A treatise on electricity and magnetism* (3rd ed., Vol. 2, pp. 68–73). Oxford: Clarendon Press.
3. Jacobs, I. S., & Bean, C. P. (1963). Fine particles, thin films and exchange anisotropy. In G. T. Rado & H. Suhl (Eds.), *Magnetism* (Vol. 3, pp. 271–350). New York: Academic Press.
4. Yorozu, Y., Hirano, M., Oka, K., & Tagawa, Y. (1987). Electron spectroscopy studies on magneto-optical media and plastic substrate interface. *IEEE Transactions Journal of Magnetism in Japan*, 2, 740–741.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori: «2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida».
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-son qarori: «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
7. Harris, J. M. Sustainability and sustainable development. International Society for Ecological Economics.
8. United Nations Environment Programme (UNEP). (2009). A global green new deal (p. 42). UNEP.
9. Vashchalova, T. V. (2020). Ekologicheskie osnovy prirodopolzovaniya. Ustoychivoe razvitie Ecological foundations of nature management. Sustainable development (p. 56). Moscow: Yurayt.
10. Ivanova, N. I., & Levchenko, L. V. (2017). «Zelenaya» ekonomika: sushchnost, printsipy i perspektivy. Vestnik Omskogo universiteta. Seriya «Ekonomika» (2), 20–21.